

Shaytonning hasadi



16:30 / 15.09.2019 2589

2

Iblis va uning zurriyoti bunga qanday rozi bo'sin? Insonlar Allohga ibodat qilishda davom etsinlarmi? Insonlar bitta xalq bo'lib, ixtilof qilmasinlarmi? Albatta bunday bo'lmaydi! Albatta bunday bo'lmaydi! Odam zurriyotlari jannatga kiradimi, iblis va zurriyotlari do'zaxga kiradimi? Albatta bunday bo'lmaydi! Albatta bunday bo'lmaydi! Albatta u odam alayhissalomga sajda qilmadi, bas Alloh uni (jannatdan) quvdi va la'natladi. U odam alayhissalom bolalaridan o'ch olib, ular bilan birga do'zaxga kirmaydimi? Ana shunday bo'lishi kerak! Ana shunday bo'lishi kerak!